

“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” aksiyadorlik jamiyati yagona aksiyadorining qarori

Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi,
38-uy.

2022-yil “27” dekabr

“Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyati tomonidan muomalaga chiqarilgan 2 301 392 924 315 dona oddiy egasining nomi yozilgan hujjatsiz aksiya paketi jamiyat yagona aksiyadori – “O‘zkimyosanoat” AJga tegishli bo‘lganligi sababli kvorum 100 foizni tashkil qiladi.

Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 58-moddasi va jamiyat Ustaviga muvofiq 2022-yilning “27” dekabr kuni yakka tartibda qabul qilindi va yozma shaklda rasmiylashtirildi.

KUN TARTIBI:

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining transport va logistika masalalari bo‘yicha o‘rinbosarini tayinlash.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun) 59-moddasiga asosan jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiradi.

Shuningdek, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Ustavining 10-bob (Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi), I-bandida, “Jamiyat boshqaruv raisi va a‘zolarini saylash (tayinlash, yollash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Jamiyat boshqaruv raisi va a‘zolarini tayinlash to‘g‘risidagi qaror, odatda xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo‘lgan tanlov asosida qabul qilinadi” deb belgilangan.

Jamiyat tomonidan Jamiyat boshqaruv raisining transport va logistika masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi 2022-yil 5-oktabrdan 2022-yil 5-noyabrgacha O‘zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining milliy vakansiyalar bazasi (<https://ish2.mehnat.uz>)ga bo‘sh ish o‘rni sifatida joylashtirilib e‘lon berilgan.

Jamiyatning 2022-yil 15-dekabrda 22/22-son bayonnomasiga asosan Jamiyat boshqaruv raisining transport va logistika masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga e‘lon natijasida murojaat qilgan uchta nomzod kadrlar bilan suhbat o‘tkazilgan hamda mazkur lavozimga Abrayev Eshburi Choriyevich nomzodi ma‘qullangan.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruv a‘zolarining 2022-yil 15-dekabrda 14-son qaroriga asosan Jamiyat boshqaruv raisining transport va logistika masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga Berdiyev Obidjon Norpulatovich, Amirqulov Muxiddin Nursoatovich va Abrayev Eshburi Choriyevichlarning nomzodlari ko‘rib chiqilishi uchun kiritilgan (*Nomzodlarning tarjimai hollari, mehnat faoliyatlari va vazifaga tayinlash to‘g‘risidagi arizalari ilova qilinadi*).

Ushbu nomzodlar tegishli tartibda o‘rganib chiqilib, Abrayev Eshburi Choriyevich nomzodi Jamiyat boshqaruv raisining transport va logistika masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimiga ma‘qullandi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qilindi (2 301 392 924 315 dona ovoz, 100 %):

1. Abrayev Eshburi Choriyevich 2022-yil “27” dekabr kundan “Dehqonobod kaliy zavodi” aksiyadorlik jamiyatining ijroiya organ a‘zosi – boshqaruv raisining transport va logistika

masalalari bo'yicha o'rinbosari etib tayinlansin va u bilan belgilangan tartibda mehnat shartnomasi tuzilsin.

2. Jamiyat nomidan Abrayev Eshburi Choriyevich bilan mehnat shartnomasini (shartnomaning amal qilish muddati – 2025-yil 1-iyulga qadar) imzolash vakolati jamiyat Kuzatuv kengashi raisi O. Temirovga berilsin.

3. E.Abrayevga to'lanadigan ish haqlari "Dehqonobod kaliy zavodi" aksiyadorlik jamiyati "Boshqaruv a'zolari mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish hamda boshqaruv va nazorat organlariga to'lanadigan rag'batlantirish va kompensatsiyalar to'g'risida"gi nizom asosida to'lab borilsin.

4. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Usarov):

- transport va logistika masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimiga kadrlar zahirasini yangilasin va 2022-yilning 31-dekabr kuniga qadar "O'zkimyosanoat" AJga taqdim etsin;

- zahirani shakllantirishda salohiyatli va iqtidorli mutaxassislarni jalb qilinishi ta'minlansin;

- mazkur qaror kuchga kirgan kundan boshlab, Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalari talablaridan kelib chiqib, tegishli ma'lumot (muhim fakt)larning o'rnatilgan tartibda oshkor qilinishi ta'minlansin.

**Jamiyatning yagona aksiyadori
"O'zkimyosanoat" AJ nomidan
boshqaruv raisi v.v.b.**



Y. Korjikov



(Temirov O. M.)



(D. A. Fayozov)



(M. M. Murodov)



(B. Murodov)



(G. Murodov)